
"Tashabbusli byudjet" loyihasi amalda| To'da MFY ichki ko'chalarga asfalt yotqizilmoqda

Yurtimizda "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida aholi vakillari o'z mahallasida infratuzilmalarni yaxshilash, maktablarni ta'mirlash, jihozlash hamda boshqa tashabbusli loyihalarga ovoz berish orqali mahalliy byudjetning bir qismini taqsimlashda faol ishtirok etishmoqda.

Rishton tumanida ham tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hudud ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada mustahkamlashga xizmat qilyapti.

Tumandagi To'da mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihaning joriy yildagi ikkinchi mavsumida faol ishtirok etib, o'z tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rin olishiga erishdi.

Mahalladagi ba'zi ichki yo'llarning ta'mirga muhtojligi, yozda chang, qishda loy bo'lishidek mahalla aholisini uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan muammoga tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo'ldi.

Qayd etib o'tish joiz, hududdagi ichki yo'llarni asfaltlash yuzasidan bildirilgan taklifga 8 ming 123 ta ovoz berilib, mazkur tashabbusni amalga oshirish uchun byudjetdan 1 milliard 200 million so'm mablag' ajratildi.

Ayni kunlarda mahalladagi ichki yo'llarini asfaltlash ishlari olib borilmoqda.

2023-07-11 09:47:03